

---

## Respublika ishchi guruhi Qo'shtepa tumanida

Ayni kunlarda Qo'shtepa tumanida bo'lib turgan Respublika Ishchi guruhi a'zolari tumandagi Bolalar va o'smirlar sport maktabida tashkil etilgan sport to'garaklari faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Muassasada bolalarga yaratilgan shart-sharoitlar, qolaversa kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ham o'rganildi.

Shuningdek, ishchi guruh Qo'shtepa tumani 2-sonli politexnikumiga ham tashrif buyurib, o'quvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. O'quvchilarni darsda olgan nazariy bilimlari o'rganilib, muassasada yangi tashkil etilgan, "Ochiq byudjet" loyihasi asosida qurib bitkazilgan "Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish" ustaxonasiidagi jarayonlar va yaqinda tashkil etilgan "Nemis tili"ni o'rgatish o'quv kursining faoliyati ham o'rganildi.

O'rganish davomida mas'ullarga muassasa faoliyatini yanada jonlantirish yuzasidan aniq ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

2025-02-05 08:28:27